



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

AQLI ZAIF O'QUVCHILARINI LUG'ATINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHINING AHAMIYATI

Xamidova M P

Nizomiy nomidagi O'zMPU Oligofrenopedagogika kafedrası p.f.n.dots.,

Abdig'aniyeva Soliha Faxriddin qizi

Oligofrenopedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'yinni pedagogik jarayon strukturasida tahlil qilish natijasida shu narsa aniqlandiki, o'yin faqat psixologik hodisa bo'lib qolmay, balki pedagogik hodisa hamdir. Biroq o'yindan tarbiya masalalarini hal qilish uchun ongli ravishda foydalanilgandagina u pedagogik hodisa shaklini oladi. Pedagogik vazifa sifatida o'yin turli vazifalarni: tarbiya vositasi, ta'lim berish metodi, shuningdek, bolalarni o'qitish usullari vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: aqli zaif bolalar, didaktik o'yin, pedagogik vazifa, nutqiy malakalar, jamoaviy ish, fiziologik-psixologik xususiyatlar;

Аннотация: В результате анализа игры в структуре педагогического процесса установлено, что игра является не только психологическим феноменом, но и педагогическим феноменом. Однако только когда игра сознательно используется для решения вопросов воспитания, она принимает форму педагогического феномена. Игра как педагогическая задача выполняет различные задачи: как средство воспитания, как метод воспитания, а также как метод обучения детей.

Ключевые слова: умственно отсталые дети, дидактическая игра, педагогическая задача, речевые навыки, командная работа, физиологико-психологические особенности;

Annotation: As a result of the analysis of the game in the structure of the pedagogical process, it was determined that the game is not only a psychological phenomenon, but also a pedagogical phenomenon. However, only when the game is consciously used to solve educational issues does it take the form of a pedagogical phenomenon. As a pedagogical task, the game performs various tasks: the educational tool, the teaching method, as well as the methods of teaching children.

Keywords: mentally retarded children, didactic play, pedagogical task, speech skills, teamwork, physiological-psychological peculiarities;

O'yinlarning asosiy xususiyatlari shundaki, bularda to'g'ridan-to'g'ri ta'limga aloqador masalalar o'yin qoidalari niqobi ostida o'tadi.

Bola o'ynar ekan, o'rganaman deb o'ylamaydi, lekin o'yin jarayonida u nimagadir o'rganadi. Ta'lim bu erda ataylabdan o'tilmaydi. O'yinlarning qimmatini shundaki, u kichik yoshdagi bolalarning imkoniyatlariga javob beradi va ularning energiya sarflashlarini muvozanatlashtiradi. U ma'lum darajada ta'lim mazmunini qabul qilish va o'qitishni niqoblash kabi muhim xususiyatga egadir. Bola buni hayolga keltirmagan holda o'rganadi. Shuni ham aytish keraki, didaktik o'yinlarda, shaxsning tormozlanish qobiliyati, diqqatini o'sishi, kuzatuvchanlik kabi xususiyatlari o'sibgina qolmay, bolalarning bevosita o'quv faoliyati ham shakllanadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

O'yinlarda jamoaviy ish, ongli intizomni tarbiyalash uchun kerak bo'lgan do'stona birodarlik hissiyoti, to'g'rilik, haqiqatgo'ylik va boshqa hislatlar rivojlanadi. Jamoa o'yinlarida astoydil maqsadga intiladigan va boshqalarni etaklaydigan tashkilotchi bolalar, yo'lboshchi bolalar tarbiyalanadi.

Bolalar qanchalik yosh bo'lsa, o'yin ularni faoliyatida shunchalik katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni tarbiyalashda o'yinning ahamiyatiga yetarlicha baho bermaydigan o'qituvchi o'z ishida katta yutuqlarga erisha olmaydi.

Amalda stol ustida o'ynaladigan o'yinchoqlar, harakatli o'yinlar, texnik o'yinlar, atraksionli o'yinlardan foydalaniladi.

Bola hayotida rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda katta odamlar o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlarni o'zlari tushunadigan vaziyatlarda qaytaradilar. Bola o'ziga ma'lum bir rolni olar ekan, tegishli qoida, vazifalarni bajaradi va bu qoidalarni o'zlashtirib oladi, ahloqiy malaka va odatlarni egallaydi. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yin ko'pchilik bilan o'tkaziladi.

O'yin davomida bolalar o'rtasida kattalar orasidagi munosabatlar tarkib topadi, va asta-sekin mustahkamlanadi.

Bolaning yoshi o'sib borishiga qarab rollarga bo'lib o'ynaladigan o'yinlar bilan bir qatorda didaktik va harakatli o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola maktabga qatnay boshlaganda o'yinning ahamiyati bir oz kamayadi. Lekin ta'lim olish o'yinni bola hayotidan butunlay chiqarib tashlaydi, degani emas. Bu holda o'yinning xarakteri, uning mazmuni o'zgaradi, biroq uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati muximligicha qolaveradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda ular tasvirlayotgan kishilarning xususiyatlari muhimroq bo'lib ko'rinadi. O'quvchilarning kuchlilik, botirlik, chaqqonlilikiga sabab bo'ladi. Bolalar to'siqlarni engib o'tishga harakat qiladilar, qahramonona ishlarni bajaradilar.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari boshlang'ich sinfida ta'limning oxiriga borib, ong-bilim doirasining kengayishi munosabati bilan o'quvchilar haqiqiy qiyinchiliklarni engib boradi. O'yin elementlarini kiritish bolalarda belgilangan ishni mumkin qadar yaxshiroq bajarish ishtiyoqini uyg'otadi va ularda har qanday ishga ma'suliyat sezgan holda yondoshish odatini tarkib toptiradi.

Boshlang'ich sinflarda didaktik yoki o'rgatuvchi o'yinlar keng tarqalgan. Ular bilish mazmuniga ega bo'lib, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga qaratilgan. O'quv faoliyatining har-xil turlarida hilma-xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Matematika darslarida topishmoqli o'yinlar, rasmi o'yinlardan foydalanish mumkin.

Geometrik shakllar: aylana, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak haqida to'laroq tasavvur hosil qilishda yordam berishi mumkin. O'yin faoliyatini tashkil etishda bir qator pedagogik shartlarga rioya qilish lozim.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish» singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga, o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10—15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari bajonu dil va mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. «Kim turgan saf yaxshiroq», «Zanjircha», «Narvoncha», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin» singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining bitta o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshiriqni to'g'ri bajarsa, undan behad xursand bo'ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi.

O'yinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

O'yinlarda tirishqoqlik, matonatilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng keraqli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

“Do'koncha”, “Nimani taqillatdim?”, “Teatr”, “Mehmondorchilikda” singari o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib oladilar, ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. O'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa, dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, didaktik o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Bolada yosh fiziologik-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda matematikaga bo'lgan qiziqishlarni asta-sekin uyg'ota borish lozim. Buning uchun darslikdagi o'quv materiallarni qiziqarli qilib tushuntirish, mahalliy materiallar asosida hisoblash, o'lchash, yasashga oid masalalar tuzish va echish; o'yinlardan, ertak qahramonlaridan foydalanish muhimdir. O'yin kichik sinf o'quvchilarining sevimli faoliyatidir. O'yin yordamida ular o'rtasida muayyan munosabatlar o'rnatadigan bolalar guruhlarini yuzaga keladi.

“O'yin boshqa hamma usullardan ustunlik qiladi, chunki u xuddi bolalarning butun hayotini, shaxsiy faolligini, mustaqilligini yo'lga qo'yish imkonini beradi,” - deb yozgan taniqli metodist A. Usova. O'qituvchi o'yindan bolalar faoliyatini to'g'ri boshqarib, bolalar xulq-atvorini ijtimoiy sifatlarini tarkib toptirishdek keng tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishi lozim.

O'yin tarbiya vositasi hamda tafakkur, nutq, hayol, xotira kabi psixologik jarayonlarni kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan, “Nima o'zgaradi” o'yinida o'qituvchi doskaga qo'g'irchoq, turli shakllar, rasmlar qo'yadi. O'quvchilar ko'zlarini yumishadi. O'qituvchi biror narsani o'rnini almashtiradi yoki



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

olib qo'yadi. Bolalar yuqoridagi o'zgartirishlarni aytadilar, bunda o'quvchilarning xotirasi, geometrik shakllar haqida tasavvurlari shakllanadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. P.M. Po'latova "Maxsus Pedagogika (Oligofrenopedagogika). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi .Toshkent – 2005
2. V.S.Raxmanova "Defektologiya asoslari" «niso poligraf».Toshkent-2017
3. P.M.Po'Latova,L.Sh.Nurmuxamedova,D.B.Yakubjonova,Z.N.MamarajabovaSh.M.Amir saidova, A.D.Sultonova "Maxsus Pedagogika" Toshkent - <<Fan va Texnologiya>> – 2014
4. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Boshlang'ich sinf tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg'ona, 2001.
5. Abdumalikov R., Abdullaev A. va boshqalar. Boshlang'ich sinf tarbiya ta'limi ilmini takomillashtirish masalalari.
6. Abduraxmonov F., Davletshin G.M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yoshdashish kerak. T.: 1996.